



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2026-yil 30-aprel



**BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHDA
AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH**

Cho'tboyev Behruz

Qo'qon davlat universiteti

Pedagogika va psixologiya fakulteti

Pedagogika (qo'shimcha tarbiya fani o'qituvchisi)

ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Sultanov Sherzod

Annotatsiya: *Mazkur maqolada bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish masalalari yoritiladi. Ta'lim tizimida raqamlashtirish jarayonlarining jadallashuvi pedagog kadrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yilayotgan talablarni tubdan yangilamoqda. Shu nuqtai nazardan, maqolada bo'lajak o'qituvchilarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)dan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish, ularni interaktiv ta'lim muhitida ishlashga tayyorlash hamda innovatsion pedagogik yondashuvlarni qo'llash masalalari tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlari: *axborot texnologiyalari, AKT, kasbiy tayyorgarlik, pedagogik kompetensiya, raqamli ta'lim, interaktiv metodlar.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются вопросы эффективного использования современных информационных технологий в процессе подготовки будущих учителей к профессиональной деятельности. Ускорение процессов цифровизации в системе образования существенно обновляет требования к профессиональным компетенциям педагогических кадров. В этой связи в статье анализируются вопросы формирования у будущих учителей навыков использования информационно-коммуникационных технологий (ИКТ), их подготовки к работе в интерактивной образовательной среде, а также применения инновационных педагогических подходов.*

Ключевые слова: *информационные технологии, ИКТ, профессиональная подготовка, педагогическая компетенция, цифровое образование, интерактивные методы.*

Abstract: *This article discusses the effective use of modern information technologies in preparing future teachers for professional activity. The rapid digitalization of the education system significantly updates the requirements for teachers' professional competencies. In this regard, the article analyzes the development of future teachers' skills in using information and communication technologies (ICT), their readiness to work in an interactive learning environment, and the application of innovative pedagogical approaches.*

Keywords: *information technologies, ICT, professional training, pedagogical competence, digital education, interactive methods.*



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2026-yil 30-aprel



Davlatimiz tomonidan ta'lim sohasini isloh qilish bo'yicha qabul qilinayotgan qonunlar, qarorlar va sohaga oid huquqiy hujjatlar hozirgi davrdagi mavjud kamchiliklarni bartaraf etish borasida muhim ahamiyat kasb etdi. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida o'quv dasturlarini joriy etish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, o'qitishning innovatsion shakllari va usullari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi belgilab berilgan. Albatta bu kabi qarorlarning natijasi o'laroq yurtimizda yangi kadrlar, yani bo'lajak o'qituvchilar, ijtimoiy soha hodimlari va shu kabi kasb egalarini tayorlash yangi darajaga ko'tarilib bormoqda. Hozirgi kunda hech bir narsani axborot-texnologiyalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi, shuningdek ta'lim jarayonlarini ham. Shu o'rinda axborot texnologiyalari hamda ularning ta'lim tizimidagi o'rni haqida to'xtalib o'tsak. Aynan texnologiyalarning ta'lim tizimiga kirib kelishi va uni yangi bosqichga olib chiqilishi natijasida barchamiz «yangi pedagogik texnologiyalar» atamasini ishlata boshladik. Bir misol, shaxsiy kompyuter ta'limning imkoniyatlarini butunlay o'zgartirib yubordi. Internet laptoplar ta'lim tizimiga yangi pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish bo'yicha yanada kattaroq imkoniyatlar yaratib berdi. O'zbekistonning mustaqilligi sharoitlarida ta'lim tizimini isloh qilish birinchi navbatda ta'lim va tarbiya tizimiga ilg'or axborot texnologiyalarning tatbiq etish bilan bog'liq. Ma'lumki, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari mikroelektronika, hisoblash texnikasi (apparatli vositalar va dasturiy ta'minotlar), elektroaloqa va antoelektronika-mikroprosessorlar, yarimo'tkazgichlar va optik-tolali kabellar sohalaridagi kashfiyotlar bilan bog'liq.

Hozirgi jadal suratlar bilan rivojlanayotgan fan texnika asrida dunyo mehnat bozori ish o'rinlarini jadal suratlar bilan o'zgarimoqda va bu ayni daqiqalarda yana yangilarini yangi loyihalar yangi yo'nalishlar paydo bo'lishiga ta'sir etmoqda. Biz ham ta'lim tizimini ham shunga mos ravishda jadal suratlar bilan olib borishimiz bo'lajak o'qituvchilarni esa shu mezonlarga javob bera oladigan ko'nikmalar bilan qurollantirishimiz lozim. Pedagoglar xar bir jarayonda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) ta'lim jarayoniga joriy etish usullari, texnologiyalari va ayni damda metodlari bilan o'quvchilarga XXI asrda muvaffaqiyatga erishish uchun muhim bo'lgan ko'nikmalarni shakllantirish xarakat qilishlari va eng muhim vositalardan to'g'ri va aniq foydalana olishlari lozim. Bo'lajak o'qituvchilarni kelajak ta'lim tarbiya jarayonlariga tayyorlar ekanimiz xar o'qituvchida shaxsiy va kasbiy sifatlarni rivojlantirishimiz, qanday sharafli va prezidentimiz tabiri ilan aytganda kasblarning eng etiborli turlaridan biri bo'lgan o'qituvchilik kasbini egallayotganliglarini xis eta olishlariga erishishimiz lozim shundagina mas'uliyat va o'z kasbiga fidiyi insonlarni tarbiyalashimiz mumkin. Manashunday eng kerakli va sharafli kasbni yetuk mutaxasisi bo'lishlari uchun esa zamon bilan hamnafas holda xarakat qilishlar zamonaviy kasblarni va zamonaviy ta'lim tarbiya usullari, shakllari va metodlaridan foydalanish ko'nikmasiga ham ega bo'lishlari lozim. Pedagog sifatida hozirgi kun talabiga xos bo'lgan "Zamonaviy o'qituvchi" nomiga va sifatiga erishishimiz uchun va bo'lajak o'qituvchilarni ham shunday tayorlashimiz uchun xar bir pedagogimizda quyudagi zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini dasturini bilishlarini va undan to'la qonli



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2026-yil 30-aprel



foydalanish o'zlari o'tayotgan dars mashg'ulotlarida esa foydalana olish ko'nikmalrini shakillantirishimiz lozim. Har bir fan o'qituvchilari axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini savodxonligi bo'yicha uyudagi boshlang'ich ko'nikmaga ega bo'lishlari lozim: Dars mashg'ulotini boshlashdan avval dars jarayoniga tayyorgarlik bosqichida o'qituvchi mashg'ulotda o'quvchilarga nimani va qanday yangi bilimlarni bermoqchi Yangi bilimlarni berishda albatta o'qituvchi Kompyuter haqida tushunchaga ega bo'lish va uning ishlash prinsiplarini bilishi lozim. Buning uchun esa unda kompyuter savodxonligi bo'ishi lozim. Agar o'qituvchi o'zi bilimga ega bo'lmasa unda o'quvchilarga nima va qanday usulda o'rgatadi? O'qituvchi zamonaviy ta'lim jarayonida Dasturiy ta'minot haqida bilimlarga ega bo'lmasa, didaktik materiallarni eng sodda, tushunarli tarzda va o'tayotgan fan dasturidan ishchi xujjatlarni tayyorlashda o'zi uchun qullay, sodda, kam vaqt va kuch sarfay digan matn muxarrirlari, elektron jadvallar va boshqa amaliy dasturlar to'plamidan foydalana olsa o'z ustida ishlashga va bilim ko'nikmalarni rivojlantirishga ko'proq vaqt ajratadi. Yuqorida keltirilgan fikrlardan xulosa qilib asosiy o'rganishi va egallash i mumkin bo'lgan ko'nikmalarni keltirib o'tmoqchiman:

- > Kompyuter savodxonligi bo'ishi lozim. (asosiy va qo'shimcha qurilmalari haqida ma'lumotga ega bo'lish);
- > Kompyuter haqida tushunchaga ega bo'lish va uning ishlash prinsiplarini bilishi lozim;
- > Dasturiy ta'minot haqida bilimlarga ega bo'lish;
- > Didaktik materiallar va ishchi xujjatlarni tayyorlashda matn muxarrirlari, elektron jadvallar bilan ishlash ko'nikmalari;
- > Amaliy dasturlar to'plamidan foydalana olish;
- > Internet tarmog'i imkoniyatlaridan foydalanishni bilish.;

Pedagog mutaxasislarimiz o'z faoliyatlari davomida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari savodxonligiga ega bo'lishi bilan chegaralanib qolmasliklari, axborotkommunikatsiya texnologiyalarining eng samarali vositalaridan ta'lim samarad orligini oshirish yo'lida to'g'ri aniq va puxta texnologik xaritalar orqali foydalanish metodikasiga ham ega bo'lishsa ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishlari mumkin. Ya'ni, har bir mashg'ulot jarayonida fan o'qituvchisi o'zining dars jarayonini Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining eng samarali vositalaridan didaktik vosita sifatida foydalana olish ko'nikmasiga ega bo'lishi zarur. Shu sababli, o'qituvchilarni doimo malaka oshirish kurslarida qayta tayyorlov mashg'ulotlarida nafaqat kompyuter savodxonligiga oid bilimlar amaliy ko'nikmalar, balki axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan ham samarali foydalanish metodikasiga oid mavzularni o'qitish bizni tezroq maqsadga erishishimizda amaliy yordam beradi. Shu o'rinda olimlar va mutaffakir pedagog mutaxasilar, ilm fan-texnika jarayonlarida yutuqqa erishgan tajribalari olimlarning "O'qituvchi" va "Kompyuter"ga bergan judda ajoyib va o'rinli tariflarini keltirmoqchimiz. Olim va tadqiqotchi Kreyg Barretning quyudagi so'zlarini judda o'rinli bo'ladi: "Mo'jizani kompyuterlar emas, balki o'qituvchilar yaratadi." Ya'ni, axborot texnologiyalari vositalari pedagoglarga ta'lim sifatini oshirishga xizmat qilmaydi, bu jarayon faqqat pedagogning ish samaradorligini va ish



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2026-yil 30-aprel



sifatini oshiradi o'quvchi tasir etish ko'lamini va sifatini yaxshilaydi. Kompyuterda dars jarayoni tashkil qilish va uni olib borish jarayonlari sifatliroq va samaraliroq amalga oshadi. Chunki o'quvchi og'zaki tushuntirishlardan ko'ra ko'proq malumotga va bilim sifatiga erishadi.

Xulosa: Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda axborot texnologiyalaridan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omilidir. AKTdan oqilona foydalanish pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantiradi, ularni zamonaviy ta'lim muhitiga moslashtiradi hamda interaktiv va innovatsion yondashuvlarni qo'llash imkonini kengaytiradi. Natijada, bo'lajak o'qituvchilar raqamli ta'lim sharoitida samarali faoliyat yurita oladigan, raqobatbardosh mutaxassislar sifatida shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kamolova, A., & Ergasheva, G. S. Q. (2022). Yosh avlodni tarbiyalashda xalq pedagogikasi manbalarini o'rganishning ilmiy-nazariy asoslari. *Science and Education*, 3(12), 590–592.
2. Kamolova, A. O. Q., & Husaynova, S. I. (2023). O'smirlar o'rtasida axloqsizlikni oldini olishda pedagogik faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari. *Science and Education*, 4(2), 969–972.
3. Nishonova, M. Ya., & Kamolova, A. O. (2021). O'smirlarga huquqiy bilim berishda keys-stadi texnologiyasidan foydalanish. *Ekonomika i sotsium*, 8(87), 42–45.
4. Semenov, I. N. (1992). *Psixologiya refleksii v organizatsii tvorcheskogo protsessa myshleniya (doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati)*. Moskva.
5. Bannayev, M. S. (2021). O'zbekistonda maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim muassasalarida psixologik xizmatni tashkil etish imkoniyatlari va muammolari. *Science and Education*, 2(7), 293–297.
6. Nishonova, M. Y., & Kamolova, A. O. (2021). Using case study technology in legal education for teenagers. *Ekonomika i sotsium*, 8, 42–45.
7. Axmedova, D. S., & Kamolova, A. O. (2022). O'smirlarda me'yordan xulqiy og'ish holatlarini korreksiyalash jarayonida huquqiy savodxonlikning ahamiyati. *Eurasian Journal of Academic Research*, 2(3), 413–416.
8. Kamolova, A. O. Q. (2023). Pedagogik kasbi boshqa barcha kasblarning poydevoridir. *Science and Education*, 4(5), 988–992.